

## RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI.

**Sheraliyeva Sohiba Achilovna**

*Do'stlik tumani, 16-son "Saodat" nomli  
DMTT da tarbiyachi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlardagi maktabgacha ta'lism tizimining qiyosiy tahlili haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy axborot texnologiyalari, chuqur bilim berish, ehtiyoj, ta'lism- tarbiya, integratsiya, qobiliyat, huquqiy kafolatlar, oilaviy tarbiya, milliy tarbiya.

Ilm fan va texnikaning rivojlanib borishi, ta'lism – tarbiya tizimi oldiga komil insonni shakllantirish (ta'lism sohasi bilan mehnat bozori o'rtaisdagi nomunosiblikni qisqartirish) hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahamiyati ortib bormoqda. Ta'lism – tarbiya samaradorligini oshirish orqali bolalarga puxta va chuqur bilim berish ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Buning uchun esa faqat ta'lism tashkilotida emas oilada ham ta'lism- tarbiya berish o'zorointegratsiyasini yo'lga qo'yish, zarurligi sezilmoqda. Shunga ko'ra tarixiy- milliy tarbiyani, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini 3-paragrifdagi 7- bo'limda maktabgacha yoshdagি bolalarga uyiga borib oilasi hamkorlikda maktabgacha ta'lism xizmatlarini ko'rsatish milliy va zamonaviy dasturi- "Home visits" ni hayotga tadbiq qilish belgilangan.

Mamlakatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakillanishi, ta'lismning dunyo ta'lism tizimiga integratsiyalashuvi, ta'lism- tarbiya sifatini ta'minlash, maktabgacha ta'lism tashkilotlarining moddiy texnik bazasi va metodik ta'minotini kuchaytirish, tarbiyachi- pedagoglar mehnati va ishlash sharoitlarini yanada yaxshilash, ta'lism va tarbiyani insonparvarlashtirish va demoktarlashtirishdagi islohatlar, jamiyatimizdagi oila institutlari hamkorlikda ta'lism- tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqazo etmoqda.

Jumladan, oilada bola ta'lism- tarbiyasi faoliyati jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakat bir qator yetakchi tashkilotlar, jamoalar va davlat, nodavlat tomonidan olib borilmoqda. Hususan Belaruslar oilasida bu borada ajoyib anana shakllangan. Ya'ni ular bolalarni maktab yoshiga yetmasidanoq qiziqishlari bo'yicha turli to'garaklarga, muayyan maktabdagi





tayyorlov yoki sport mashg'ulotlariga olib boradilar. To'garak dasturlari milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida bolalar hayotda zarur bo'ladigan ko'nikma va maxorat qobilyatlartini shakillantiradi.

Xitoy haqida gap ketganda antiqa bir dalilni keltirib o'tish lozim: bu yerda maktabdan to oily ta'lif pulli hisoblanadi. Qo'shimcha ta'lif tarmog'i esa mutlaqo bepul va ommabop. To'garaklarga 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lga bolalar qabul qilinadi, to'garaklarni ota- onalar ham navbatma- navbat olib borishadi. To'garak dasturi Xitoy xalq pedagogikasi asosida olib boriladi, ayrim qo'shimcha mavzular bo'yicha inovatsiya pedagogika texnologiyalaridan foydalaniladi.

Buyuk Britaniyada mazkur soha ancha ilgari rivojlangan bo'lib, 1833- yil 6- 13 yoshli bolalar uchun mahsus dasturlar asosida oila, maktab hamkorlikda bolalar ta'lif- tarbiysi olib borilgan. Fransiyada ota- onalar bir kunni ya'ni chorshanba kunini bolalariga bag'ishlashga va farzandi ayni damda qatnab turgan biror bir to'garakdan boshqasiga olib borishi majbur. Gap shundaki qadimiy fransuz ananalariga ko'ra, chorshanba oilaviy tarbiya kuni sifatida nishonlab kelinadi. Amaliy jihatdan bolalar o'quv muassasalari hatto bog'chalar ham besh kunlik emas, balki 4 kun ishlaydi, bu yerda chorshanba qo'shimcha dam olish kuni hisoblanadi. Shu kunni muzey, teatr, kino, konsert zallari, bollar uchun milliy va zamonaviy maxsus dasturlar tashkil etiladi. Shvetsiyada esa bolalar va pedagoglar uchun "Bo'sh vaqt markazlari" tashkil qilingan. Bu juda ham qulayva kichik birlashma hisoblanib, qatnashuvchilar yoshiga qarab 20 -30 kishidan oshmaydi. Markazda milliy va zamonaviy ta'lif- tarbiya metodikasi bilan oilb boriladi. Mashg'ulotlar tabiat qo'ynida va sport inshoatlarida tashkil etiladi. Yuqorida davlatlarda 6- 13 yoshli bolalarni oila va markazlar hamkorlikda olib borayotgan ta'lif- tarbiyo'zining samaradorligi bilan alohida kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir davlat va jamiyatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahoning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinn olishi - bilimli, yuqori infellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlashtirgan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sitqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.





## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Axmedjanov M.M., Xo'jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat-Buxoro Davlat universiteti, 2014
2. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.
- 3.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limga innovatsion texnologiyalar / Ta'limg muassasalari o'qituvchi-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

